Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'siri talqini	1905
Dostanova Kamola Alisher qizi	
Dual ta'lim jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar	1909
Egamberdiyeva Yulduz Urinboevna	
The Sociolinguistic Effectiveness of Using Authentic Texts in the Training of Prospective English Language Teachers	1912
Elyor A Pazilov	
Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari	1916
Ermatova Gullola Ziyod qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik-madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda kognitiv texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	1919
Eshmo'minova Sitara Xayrullo qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyatini shakllantirishda tizimli-vaziyatli yondashuvning nazariy asoslari	1922
Gapparova Zilola Neymat qizi	
Raqamli ta'lim muhitida kreativ tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	1926
Hayitboyeva Zarina Otanazarovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarni tushuntirishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish usullari.....	1930
Hojimamatova Jamila, Ahmedova Umidaxon Yodgorjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish	1933
Inobatxon Toshpo'latova	
4-sinf o'qish savodxonligi darsligidagi "Qarg'a va paxta" hikoyasi orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda savol va topshiriqlarning o'rni	1937
Jo'liboyeva Mahliyo Hamro qizi, Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi	
Mantiqiy tafakkur tushunchasi mohiyati.....	1941
Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich	
Developing Tolerance Skills in Future Teachers During their Professional Training.....	1945
Joldasbaeva Arzigul Muratbaevna	
O'quvchilarda aksiologik yondashuvlar asosida empatik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	1948
Jumanov Erdavlet Sharifjon o'g'li	
Yo'l harakati xavfsizligi va uni maktabgacha ta'limda o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-metodologik asoslari	1952
Jumayev Yunus Rashidovich	
Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar.....	1959
Sayfullayev G'ulom Maxmudovich, Jurayeva Iroda Botirovna	
An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	1964
Karimov Ilhom Normamatovich	
Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
Karimov Ravshanbek Rizomatovich	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati.....	1973
Kayumova Dilnoza Patxulla qizi	

Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi.....	1978
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili.....	1982
Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi	
Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlar.....	1986
Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati.....	1990
Murodova Farangis G'anisherovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari	1994
Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli	1997
Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li	
Ingliz tilini o'rgatishda interrogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi	2003
Normamatova Dilfuza Turdikulovna	
Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati	2008
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish.....	2011
Romanova Lola Karimbayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish.....	2014
Rustamova Gulmira Yoryigit qizi	
Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynovord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari	2018
Sadinov Oybek Ziyot o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	2021
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish	2024
Shermuxevedova Dilnozaxon Raximjanovna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	2028
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi.....	2031
Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi	2034
Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich	
Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish	2039
Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi	
Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish	2043
Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi	
Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi	2046
Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna	
Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash	2050
Umarov Abdurasul Abduraximovich	
Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	2058
Umarov Xusanboy Rustamovich	
Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences.....	2062
Usmanova Nargiza Kudratullayevna	
Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlar (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil)	2065
Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich	
Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari	2069
Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li	
Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli ...	2073
Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li	
Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	2080
Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna	



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoiri Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yuldasheva Dilshoda To'liqinova	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari	2102
Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish	2106
Yunusova Feruzaxon Xodjakbarovna	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasidagi ahamiyati	2109
Yunusova Xolidaxon To'liqinjon qizi	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari	2113
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	2116
Badalova Maqsuda Umarovna	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
Mirzanov Sherzod Sirliboyevich	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста	2123
Назарова Эльвира Наримановна	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей	2127
Шафига Тахирова	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения	2131
Эшанкулов Хамракул Маматкулович	

O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Berdiyeva Muborak Baxtiyorovna

GulDPI "Maktabgacha ta'lim" kafedrası
katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d.(PhD)

Saydinova Barno

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'lim (MTT) tizimining so'nggi yillardagi rivojlanish dinamikasi, yutuqlar va dolzarb muammolar tizimli tahlil qilinadi. Davlat siyosatida MTTning ustuvor yo'nalishga aylanishi natijasida qamrovning kengayishi, davlat–xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining joriy etilishi, oilaviy va nodavlat MTTlar tarmog'ining kengaygani, shuningdek, raqamlashtirish elementlarining kirib kelgani asosiy yutuqlar sifatida baholanadi. Shu bilan birga, hududlar kesimida qamrov va sifat tafovutlari, malakali pedagoglar yetishmasligi, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish ehtiyoji, inklyuziv ta'limni tashkil etishdagi bo'shliqlar hamda monitoring va baholashning (M&B) amaliy mexanizmlarining to'liq yo'lga qo'yilmagani mavjud muammolar sifatida ko'rsatib o'tiladi. Maqolada siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar kesimida sabab–oqibat bog'liqlilari tahlil qilinib, indikatorlar tizimi, natija–kutilmalar mantiqiy modeli (log-frame) va amaliy tavsiyalar taklif etiladi. Xulosa qismida MTTni yanada takomillashtirish uchun kadrlar siyosati, moliyalashtirishning natijaga yo'naltirilgan mexanizmlari, raqamli yechimlar, oilalar bilan hamkorlik va inkluzivlikni kengaytirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim; qamrov; ta'lim sifati; davlat–xususiy sheriklik; inklyuziv ta'lim; pedagog malakasi; raqamlashtirish; monitoring va baholash; o'quv dasturi modernizatsiyasi; hududiy tengsizlik.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the recent development dynamics, achievements, and existing challenges in Uzbekistan's preschool education (ECE) system. As a result of ECE becoming a priority direction of state policy, several key achievements have been observed, including expanded coverage, the introduction of public–private partnership (PPP) mechanisms, the growth of family-based and non-state preschool institutions, as well as the integration of digitalization elements. At the same time, persistent challenges remain, such as regional disparities in access and quality, shortages of qualified educators, the need to modernize curricula, gaps in implementing inclusive education, and the incomplete establishment of practical monitoring and evaluation (M&E) mechanisms. The article examines causal relationships through political, economic, and social lenses and proposes an indicator framework, a logical "results–expectations" model (logframe), and practical recommendations. The conclusion outlines priority directions for further improving the ECE system, including human resource policies, results-based financing mechanisms, digital solutions, family engagement, and expanding inclusivity.

Key words: preschool education; access; education quality; public–private partnership; inclusive education; teacher qualification; digitalization; monitoring and evaluation; curriculum modernization; regional inequality.

Аннотация: В данной статье системно анализируются динамика развития, достижения и актуальные проблемы системы дошкольного образования (ДОУ) Узбекистана в последние годы. В результате превращения дошкольного образования в один из приоритетных направлений государственной политики отмечаются такие достижения, как расширение охвата, внедрение механизмов государственно–частного партнёрства (ГЧП), рост сети семейных и негосударственных ДОУ, а также интеграция элементов цифровизации. Вместе с тем выделяются существующие проблемы: территориальная дифференциация охвата и качества, нехватка квалифицированных педагогов, необходимость модернизации учебных программ, пробелы в организации инклюзивного образования, а также не до конца налаженные практические механизмы мониторинга и оценки (МИО). В статье анализируются причинно–следственные связи в политическом, экономическом и социальном разрезе, предлагаются система индикаторов, логическая модель "результат–ожидания" (logframe) и практические рекомендации. В заключении определены приоритетные направления дальнейшего совершенствования ДОУ, включающие кадровую политику, механизм финансирования, ориентированный на результат, цифровые решения, сотрудничество с семьями и расширение инклюзивности.

Ключевые слова: дошкольное образование; охват; качество образования; государственно–частное партнёрство; инклюзивное образование; квалификация педагогов; цифровизация; мониторинг и оценка; модернизация учебной программы; территориальное неравенство.



KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi mamlakatimiz ta'lim sohasining eng muhim bo'g'inlaridan biridir. Maktabgacha ta'lim bolaning hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bola jismoniy, aqliy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan shakllanadi. Shu sababli mamlakatimizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimi bilan qamrab olish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan so'nggi yillarda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlar natijasida mamlakat bo'ylab yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari barpo qilinmoqda, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati kengaymoqda. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim qamrovi sezilarli darajada ortib bormoqda. Buning bir nechta sabablari bor, albatta.

Birinchidan, bu soha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Hukumat tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmoqlarini kengaytirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va xodimlarni qayta tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Ikkinchidan, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat sherikchiligi asosida o'z faoliyatlarini olib bormoqda, bu esa ota-onalar uchun tanlov imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Uchinchidan, ilgari qamrov past bo'lgan hududlarda bolalar uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. To'rtinchidan esa, oilaviy va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tashkil etilishi kam aholi istiqomat qilayotgan hududlarda ham samarali ish faoliyatini yo'lga qo'yilayotganidan dalolatdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola qamrovining ortishi bir qator ijobiy natijalarga olib kelmoqda:

- 1) bolalarning erta yoshdan ijtimoiylashuvi va muloqotga kirishish ko'nikmalarining rivojlanishi;
- 2) maktabga tayyorgarlik darajasining oshishi;
- 3) ota-onalar bandligining ta'minlanishi, ayniqsa ayollarning ish faoliyatiga qayta kirish imkoniyatining yaratilishi;
- 4) ta'lim sifati va tarbiyachilarning malakasi oshib borayotganligi natijasida bolalar rivojlanishining barqarorlashuvi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim qamrovi sezilarli darajada oshdi. 2017-yilda 3–7 yoshli bolalarning atigi 27 foizi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 70 foizdan oshdi. Bu natija yangi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari qurilishi, mavjud bog'chalarni rekonstruksiya qilish va oilaviy bog'chalar faoliyatini yo'lga qo'yish hisobiga amalga oshirildi. Qamrovning ortishi natijasida bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiylashuv ko'nikmalari va erta rivojlanish darajasi ancha yaxshilandi. Davlat-xususiy sheriklik tizimining rivojlanishi so'nggi yillardagi eng samarali islohotlardan biri bo'ldi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga soliq imtiyozlari, subsidiya va kredit yengilliklari joriy etilgani sababli bu sohada xususiy sektor ishtiroki keskin oshdi. Natijada ota-onalarga turli dasturlar, o'qitish metodlari va to'lov shakllari asosida tanlov imkoniyatlari yaratildi. Bunday sheriklik davlat byudjeti yukini kamaytirish bilan birga, raqobatni kuchaytirib, ta'lim sifati oshirishga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mazkur sohada tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, Prezident qarorlari, hukumat dasturlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan metodik hujjatlar maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Xususan, 2017–2023-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, UNESCO, UNICEF va Jahon banki tavsiyalariga asoslangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha yangi yo'nalishlarni belgilab bergan.

Mahalliy olimlar – S. Nishonova, N. Saydahmedova, Z. Ibragimova, D. Xudoyberdiyeva va boshqalar – tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish shartlari, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasi, STEAM elementlarini tatbiq etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari keng yoritilgan.

Xalqaro ilmiy manbalarda esa maktabgacha ta'limning barqaror rivojlanish tamoyillari, raqamli pedagogika, inklyuziv ta'limni takomillashtirish, bolalarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish (kreativlik, kommunikativlik, muammo yechish, hamkorlik) bo'yicha yondashuvlar ilgari surilgan. Masalan, Maria Montessori, L. Vygotskiy, G. Gardner, J. Dewey kabi olimlarning nazariyalari hozirgi innovatsion ta'lim dasturlarining ilmiy asosini tashkil etadi.



Umuman olganda, o'rganilgan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari quyidagi asosiy sohalarga qaratilgan:

- ta'lim sifatini oshirish uchun ilg'or xorijiy tajribalarni integratsiya qilish;
- raqamli o'quv resurslari va AKT asosidagi o'qitish;
- tarbiyachilarning malakasini oshirishning yangi modellarini joriy etish;
- inklyuziv ta'limni kengaytirish;
- sog'lomlashtirish va psixologik xizmatni takomillashtirish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, mavjud me'yoriy hujjatlar, davlat dasturlari va ilmiy manbalar nazariy tahlil orqali o'rganildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini bevosita kuzatish asosida empirik ma'lumotlar to'plandi. Tarbiyachilar va ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbat va anketalar yordamida zamonaviy yo'nalishlarga bo'lgan munosabatlar o'rganildi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil usullari bilan qayta ishlanib, umumiy tendensiyalar chiqarildi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi ilg'or xorijiy mamlakatlar bilan qiyosiy tahlil orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasi ham sezilarli darajada yaxshilandi. Yangi qurilgan muassasalar zamonaviy energiya tejamkor binolar, ventilyatsiya tizimlari, xavfsizlik kameralariga ega bo'lib, bolalar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratmoqda. O'yin maydonchalari, sport va dam olish burchaklari, laboratoriya xonalari hamda ijodiy faoliyat uchun mo'ljallangan joylar tashkil etildi. Bu o'zgarishlar bolalarning jismoniy rivojlanishi va psixologik qulayligi uchun muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarni joriy etish maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirdi. "Maktabgacha ta'lim" yagona elektron platformasi orqali qabul jarayonlari, navbatga qo'yish, hisobot va monitoring tizimi avtomatlashtirilgan. Bu jarayon korrupsiya va inson omilini kamaytirib, shaffoflikni ta'minladi. Shuningdek, ota-onalar uchun mobil ilovalar orqali bolalar ishtiroki, dars jadvali va to'lov tizimlari bo'yicha onlayn ma'lumot olish imkoniyati yaratildi. Bu raqamli yechimlar ta'limni boshqarish sifatini yangi bosqichga olib chiqdi. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha ham tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Tarbiyachilar uchun muntazam qayta tayyorlash kurslari, seminar va treninglar tashkil etilib, zamonaviy metodika, psixologiya, kommunikativ yondashuvlar o'rgatilmoqda. Xalqaro tajribalar asosida "Early Childhood Education" (ECE) yo'nalishida o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bunday jarayonlar pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, bolalar bilan individual ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash va ta'lim sifatini barqaror yaxshilashga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida kadrlar tanqisligi eng dolzarb muammolardan biridir.

Ayniqsa, chekka va qishloq hududlarda malakali tarbiyachilar, defektolog, logoped va psixolog mutaxassislar yetishmaydi. Ko'plab mavjud kadrlar pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan yoki zamonaviy metodikalarni qo'llash ko'nikmasiga ega emas. Bu holat o'quv-tarbiya jarayonining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi joylarda bir tarbiyachi bir vaqtning o'zida 30–35 nafar bolaga xizmat ko'rsatishga majbur bo'lmoqda. Kadrlar siyosatini isloh qilish, malaka oshirish tizimini doimiy qilish va yosh pedagoglarni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Hududlar o'rtasidagi tafovutlar ham maktabgacha ta'lim tizimida katta muammo bo'lib qolmoqda. Shahar markazlarida zamonaviy jihozlangan MTTlar faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ayrim tuman va qishloqlarda hali ham bino va infratuzilma yetishmaydi. Ba'zi joylarda bolalar uzoq masofadagi bog'chalarga qatnashga majbur bo'lmoqda, bu esa qamrov darajasini pasaytiradi. Hududiy tengsizlik nafaqat infratuzilma, balki ta'lim sifati, o'qituvchilar malakasi va bolalar uchun yaratilgan sharoitlar jihatidan ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shu sababli har bir hudud uchun alohida ehtiyoj asosidagi rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish muhimdir. Ta'lim dasturlarining eskirganligi ham tizim samaradorligini cheklamoqda. Aksar maktabgacha ta'lim muassasalari o'quv-tarbiyaviy ishlarni an'anaviy, nazariy yondashuv asosida olib boradi, amaliy mashg'ulotlar, o'yin asosidagi o'qitish, kreativ va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar yetarli darajada tatbiq etilmayapti. Hozirgi global tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, STEAM, Montessori, Reggio Emilia kabi yondashuvlar bolalarda mustaqil fikrlash, kuzatuvchanlik va ijodkorlikni kuchaytiradi.

Shu bois O'zbekistonda ham ta'lim dasturlarini yangilash va xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Inklyuziv ta'lim imkoniyatlarining cheklanganligi maktabgacha yoshdagi bolalarning bir qismini ta'limdan chetda



qoldirmoqda. Nogironligi bo'lgan yoki rivojlanishida muammosi mavjud bolalar uchun maxsus moslashtirilgan muhit, o'qituvchilar, defektologlar va psixologlar yetishmaydi. Ko'pchilik MTTlarda arxitektura jihatdan kirish imkoniyatlari – pandus, lift, maxsus hojatxona – mavjud emas. Shu sababli bu toifadagi bolalar ko'pincha uy sharoitida qolib ketmoqda. Inklyuziv ta'lim tamoyillarini joriy etish nafaqat teng imkoniyatni ta'minlaydi, balki jamiyatda bag'rikenglik va ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi. Moliyalashtirish mexanizmlarining nomukammalligi ham tizim rivojiga to'sqinlik qilmoqda. Aksar MTTlar mablag' yetishmovchiligi sababli o'quv vositalari, o'yin jihozlari va metodik materiallarni yangilay olmayapti. Ba'zi hududlarda energiya va kommunal xarajatlar ham byudjetdan to'liq qoplanmaydi. Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan MTTlar uchun ham subsidiyalar va imtiyozli kreditlar yetarli emas. Bu esa ularning barqaror faoliyat yuritishini murakkablashtiradi. Moliyalashtirishni natijadorlikka asoslangan tamoyilga o'tkazish, ya'ni mablag'ni bola qamrovi, ta'lim sifati va samaradorlik indikatorlariga bog'lash zarur. Pedagog kadrlar siyosatini takomillashtirish maktabgacha ta'lim tizimining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bugungi kunda tarbiyachilarning malakasi, metodik tayyorgarligi va kasbiy motivatsiyasi ta'lim sifati bilan bevosita bog'liq.

Shu bois pedagoglarni muntazam malaka oshirish kurslariga jalb etish, zamonaviy o'qitish texnologiyalarini o'rgatish va ularning mehnatini rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Qayta tayyorlash markazlari faoliyatini hududiy darajada kengaytirish, mentorlik tizimini joriy etish, yosh mutaxassislar uchun grantlar va ustoz-shogird dasturlarini yo'lga qo'yish orqali pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish mumkin. Innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimining poydevorini mustahkamlaydi. O'yin texnologiyalariga asoslangan o'qitish uslublari, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvlari, kreativ fikrlashni rag'batlantiruvchi interfaol metodlar bolalarning ijodkorligini, mantiqiy tafakkurini va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Dars jarayonlariga multimedia, raqamli o'yinlar va tajriba asosidagi mashg'ulotlarni kiritish orqali bolalarda qiziqish ortadi, o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalari shakllanadi. Shu sababli har bir MTTda innovatsion o'qitish vositalarini tatbiq etish va pedagoglarni ulardan samarali foydalanishga tayyorlash muhimdir. Raqamli boshqaruv tizimini kuchaytirish sohada shaffoflik va samaradorlikni ta'minlashning eng muhim omillaridan biridir.

Yagona elektron platforma orqali bolalarni ro'yxatga olish, navbat tizimi, moliyaviy hisobotlar va o'qituvchilarning ish faoliyatini monitoring qilish imkonini beradi. Bunday tizim inson omilini kamaytirib, korrupsion xavflarni oldini oladi va boshqaruv jarayonlarini tezlashtiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali ota-onalar ham farzandining o'quv faoliyatini kuzatishi, to'lov va ishtirok ma'lumotlarini onlayn shaklda olish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa tizimni ochiqlik va ishonchlilik tamoyillari asosida rivojlantirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish barcha bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlashda muhim bosqichdir. Nogironligi yoki rivojlanishida farqi bo'lgan bolalar uchun maxsus moslashtirilgan muhit, defektolog, logoped va psixolog mutaxassislar shtatini ko'paytirish zarur. Inklyuziv ta'lim faqat alohida sharoit yaratish emas, balki sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qish va muloqot qilish imkonini beruvchi ijtimoiy integratsiya jarayonidir.

Shu yo'nalishda xalqaro tajriba asosida metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, pedagoglarni maxsus treninglardan o'tkazish va ota-onalarni ham bu jarayonga faol jalb etish muhim ahamiyatga ega. Moliyalashtirishni natijaga yo'naltirish tizim samaradorligini oshirish uchun zarur strategik chora hisoblanadi. Hozirgi sharoitda mablag'lar ko'pincha ta'lim sifati yoki bola soni bilan emas, balki umumiy byudjet limitlari asosida taqsimlanadi. Shu sababli moliyalashtirish jarayonida ehtiyoj va natijadorlik indikatorlarini inobatga olish lozim. Ya'ni har bir maktabgacha ta'lim muassasasi uchun mablag' ta'lim sifati, qamrov darajasi, kadrlar malakasi va bolalarning rivojlanish natijalariga bog'lab belgilanadi. Bu yondashuv har bir tashkilotni o'z faoliyatini takomillashtirishga, resurslardan oqilona foydalanishga va natijadorlikka yo'naltirishga undaydi. Bola qamrovining ko'payishi bilan birga ayrim muammolar ham yuzaga kelmoqda. Jumladan, ba'zi joylarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yetarli emasligi hamda ular malakali ishchi kadrlarning yetishmasligi, ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish zaruriyatining paydo bo'lishi. Bu kabi muammolar maktabgacha ta'lim tashkilotida juda ko'p.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim sanaladi: birinchidan, tarbiyachilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini tizimli yo'lga qo'yish; ikkinchidan, bolalar soniga mos qulay sharoitlarni yaratish hamda zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash; uchinchidan, innovatsion o'quv dasturlari va metodikalarini joriy etish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola qamrovining ortishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va kelajakka sarmoya sifatida baholanishi kerak, chunki bugungi maktabgacha yoshdagi bolalar ertangi kunning yetuk, barkamol va bilimli fuqarolaridir.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Qamrov darajasining oshishi, davlat–xususiy sheriklik asosida nodavlat bog'chalar faoliyatining kengayishi, infratuzilmaning yaxshilanishi va raqamli yechimlarning joriy etilishi sohada sezilarli natijalarni berdi. Shu bilan birga, kadrlar tanqisligi, hududiy tafovutlar, o'quv dasturlarining zamonaviy talablar



darajasida emasligi, inklyuziv ta'lim imkoniyatlarining cheklanganligi va moliyalashtirish tizimidagi nomukam-malliklar tizim samaradorligini cheklab turibdi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun birinchi navbatda kadrlar siyosatini tubdan isloh qilish, pedagoglarning malakasini oshirishni muntazam tizimga aylantirish zarur. Shuningdek, ta'lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida yangilash, o'yin asosidagi o'qitish metodlarini keng joriy etish, STEAM yondashuvlarini tatbiq etish bolalarning tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali nogironligi bo'lgan bolalarning ham sifatli ta'limga teng huquqli kirishini ta'minlash lozim.

Moliyaviy mexanizmlarni natijadorlikka asoslash, ya'ni har bir bola uchun sarflanayotgan mablag'ning samaradorligini baholash tizimini joriy etish zarur. Bundan tashqari, raqamli boshqaruv platformalarini takomillashtirish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, sog'lom raqobat muhitini yaratish orqali tizim yanada barqaror rivojlanadi. Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tizimiga kiritilayotgan har bir sarmoya mamlakatning kelajakdagi inson kapitali sifatini belgilaydi. Ilk yoshdan boshlab sifatli ta'lim va tarbiya olish imkoniyati yaratilgan bola – kelajakda bilimli, ijtimoiy faol va yurt ravnaqiga hissa qo'sha oladigan shaxs sifatida shakllanadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim sohasiga doimiy e'tibor, strategik rejalashtirish va innovatsion yondashuv mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim kafolatidir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldosheva N. Maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 2022-y.
2. Hasanboyeva O. Bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'limning o'rni. Toshkent, 2020-y.
3. To'rayeva S. R. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019-y.
4. Zunnunova A. I. Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi. Toshkent: Ilm-Ziyo, 2020-y.
5. Rasulova D. T. Bolalar psixologiyasi va maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021-y.
6. G'ulomova D. A. Maktabgacha ta'limda o'yin faoliyati orqali shaxs kamolotini shakllantirish. Toshkent: Ilm-Ziyo nashriyoti, 2020-y.
7. Berdiyeva M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning ahamiyati. Toshkent, 2024-y.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.